

## **O'SMIRLAR PSIXIKASI VA ULARNI XULQ ATVORLARINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR**

*Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar  
fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Bahodirova Shahnoza Rustam qizi**

*E-mail: srustamova055@gmail.com*

**Talipova Feruza Tayirovna**

*Alfraganus universiteti*

*Psixologiya kafedrasi v.b*

*dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)*

**Annotatsiya.** Bu maqolada o'smirlar psixikasi va ularni xulq atvorlarini o'ziga xos psixologik xususiyatlari to'g'risida keltirilgan. O'smirlarning yetakchi faoliyati ular xulqidagi va hissiy o'zgarishlarini sabab va oqibatlarini keltirib o'tilgan. O'smirlik davrida insin hayotida ijtimoiy, psixologi va fizologik o'zgarishlar bo'lib ma'lum bir psixika shakllanadi. Ularning xatti harakatlarida psixologik o'zgarishlarni ochiqlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar;** Kalit so'zlar; O'smirlik davri, hissiyot, xulq - atvor, psixologik xususiyatlar, faoliyat, ijtimoiy, muloqat

**Kirish.** Jamiyatimizda sodir etilayotgan tajavuzkorlik va salbiy xulq – atvorlarning kelib chiqishi, ayanchli holatlarning yuzaga kelishini oxirgi kunlar ko'p kuzatmoqdamiz. Bu salbiy xulq-atvorlar o'smirlik davridagi yoshlar bo'lib kelmoqda. Ko'pgina olimlar bu davrni o'rganishgan va bu davrni krejis davri deb atashgan. O'smirlik davri 10-11 yoshdan 14-15 yoshlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kumdag'i o'smirlar har taraflama ya'ni jinsiy, aqliy, siyosiy, ijtimoiylashuv va psixika oldinroq ravojlanib ketyapti. Buning sabablari esa juda ko'p. Bulardan oilaviy tarbiya, gormonal o'zgarishlar va telefonlar sabab bo'lib kelmoqda. Bu davrdagi bolalar katta bo'lib katta emas, kichik bo'lib kichik emas degan o'smir davri tushunchasini bildiradi. O'smirlik davridagi bolalar o'zlaridagi xohlayman degan tushunchalar bilan yashaydilar. Ular ko'p uzoqni, na'tijani o'ylamaydilar aksincha ko'proq bugungi kun bilan yashaydilar. Bu davrda yaxshi ko'rgan insoniga nisbatan taqlid qilish bo'ladi. Taqlid qilgan shaxsining ko'rinishi, xulq-atvori hattoki salbiy tomonlarini ham bajarishga o'tadilar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 6-sinf o'quvchilari 4-sinf o'quvchilariga qaraganda:

- 6 marta ko'proq qaysarlik qilgan,
- 10 marta ko'proq o'qituvchilarga qarshilik ko'rsatgan,
- 7 marta ko'proq boshqalarning irodasiga qarshilik qilgan,

- 9 marta ko‘proq boshqalar kamchiliklariga e’tibor qaratgan,
- 5 marta ko‘proq o‘z xohish-istiklariga bo‘ysungan,
- va 42 marta ko‘proq o‘z xatti-harakatlari motivlariga ega bo‘lmagan.

Bu shuni ko‘rsatadiki:

- Osmirlilik davriga kirish bilan birga, bolalarda mustaqillik va qarshilik reaktsiyalari kuchayadi.
- Motivatsion beqarorlik (42 marta ko‘proq motivsizlik) — eng keskin muammo bo‘lib, bu davrda o‘quvchilarning ichki motivlari shakllanmaganini bildiradi.
- O‘qituvchi bilan munosabatlar keskinlashib, qarshilik va qaysarlik ko‘payadi.
- O‘z-o‘zini anglash jarayoni kuchaygan sari bolalar atrofdagilarning kamchiliklariga ko‘proq e’tibor qaratadilar.

O’smirlik davrida yetakchi faoliyat shaxsiy intim muloqot, o’quv faoliyati, mehnat faoliyati va muloqat hisoblanadi. Ular bu davrda do’stlari bilan bo’lgan muloqat ular uchun energiya manbai bo‘lib ular o‘z hissiy holatlari bilan bo’lishib o’zlarini yengil his qiladilar. O’smirlar uchun oila birinchi o’rinda emas, ular uchun do’stlarning ahamiti tobora ortib boradi. O’smirlar o’zlarining boshqalardan farq qilib turishni xohlaydilar va hamma narsaga qiziquvchan bo’ladilar.

O’smirlarning kattalar bilan bo’ladigan muloqat jarayoni juda nozik masaladir. Chunki o’smirlar kattalar bilan bo’ladigan muloqat jarayonida o’zlarini olib qochish, o’zlarini kattalar bilan teng huquqli deb bilishlari va lekin kattalardan qo’llab quvvatlash ham kutib boradilar. Maktab ta’limi va oila muhitida bolalar va kattalar o’rtasida nizolashuvchanlik holatlari kuzatilib, pedagog va ota-onalar ularni tarbiyaisz deya koyib ularni salbiy hatti harakatlarini tobora kuchaytirib boradilar. Bu borada ko‘pchilik pedagog va ota –onalar qanday tarbiya berish va ular bilan qanday munosabatda bo’lishni so’rab kelmoqdalar. Biz shuni bilishimiz kerakki, o’smirlarga kichkinadek muloqat qilish emas balki tengdosh sifatida muloqatga kirishishlari lozim. Katta yoshdagilar tomonidan o’smirlarni tan olinishi va qo’llab quvvatlanishi kutiladi. O’smirlar mustaqillikka intiluvchi yosh davrida bo‘lgani uchun, ular kattalarning do’stona, tushunadigan va aql bilan rahbarlik qiladigan yondashuviga ijobjiy munosabat bildiradilar. Ammo agar kattalar o‘zining xohish-istagini majburan ustun qo‘ysa, bu o’smirlarda keskin qarshilik uyg‘otadi.

- Bunday qarshilik natijasida:
- intizom buzilishi,
- nizolar,
- psixologik tanglik,
- hatto depressiv holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Demak, o’smirlik davrida ularning xulq-atvori va ruhiy holatini shakllantirishda demokratik uslub, ya’ni suhbat, tushuntirish, maslahat tarzidagi muloqot juda muhim.

O’smirlik davridagi emotsional o‘zgarishlari bir muncha yuz beradi. Bular;

- Bu davrda kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi, tez jahllanish, yig‘loqilik yoki kulgiga beriluvchanlik ko‘p uchraydi.
- Emotsiyalarni boshqarish qiyin bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy vaziyatlarda haddan tashqari reaksiyalar kuzatiladi.
- O’smir o‘zini kattalarga qarshi qo‘yishi yoki tengdoshlar e’tiboriga haddan tashqari intilishi mumkin.

Bu emotsiyalarnin kelib chiqish sabablari esa;

Fiziologik omillar: gormonal o‘zgarishlar, tez jismoniy o‘sish.

- Psixologik omillar: o‘zini anglash, mustaqillikka intilish, shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni.

• Ijtimoiy omillar: oilaviy nizolar, o‘qituvchilar bilan munosabatlar, do‘stlar davrasidagi bosim. Endi bu emotsiyalarni boshqarishdagi psixologik yordam ko’rsatish kerak . Bular;

- Trening mashg‘ulotlari orqali o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlanterish.
- Ota-onva pedagoglarning qo‘llab-quvvatlovchi munosabati.
- Sport, ijodkorlik, jamoaviy mashg‘ulotlar orqali salbiy energiyani foydali faoliyatga yo‘naltirish.
- Psixologik maslahat va korreksion ishlar orqali hissiy beqarorlikni yumshatish.

L.S. Vigotskiy o‘smirlilik davridagi qiziqishlarning o‘zgarishini ikki fazaga ajratib ko‘rsatadi. Salbiy faza ilgarigi qiziqishlarning so‘nishi va dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda ish qobiliyati va o‘zlashtirishning pasayishi, qo‘pollik, yuqori qo‘zg‘aluvchanlik, o‘zidan qoniqmaslik va xavotirlanish kabi holatlar kuzatiladi. Keyingi ijobiy faza esa keng va chuqur yangi qiziqishlarning shakllanishi, boshqalarning hamda o‘zining psixologik kechinmalariga qiziqish ortishi bilan xarakterlanadi. Vigotskiy o‘smirlilik davridagi inqirozni kechinmalar va psixologik tuzilmalarning o‘zgarishi sifatida izohlaydi va 13 yoshni inqirozni sindiruvchi nuqta deb belgilaydi. Inqirozdan keyingi davr — 14–15 yosh — kattalar uchun yanada murakkab bo‘lib, unda yangi psixologik tuzilmalar shakllanadi. Ushbu jarayonlarning qanday kechishi esa kattalarning o‘zgarishlarni sezuvchanligiga, tarbiya taktikasini o‘z vaqtida o‘zgartira olishiga hamda o‘smirning yangi ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda munosabatlarni to‘g‘ri yo‘naltirishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

### **Xulosa**

Demak, o‘smirlilik davri bu o‘z nomi bilan krejis davr bo‘lib , Bu davrda organizmning jadal jismoniy rivojlanishi, gormonal o‘zgarishlar, emotsiyalarni sezuvchanligiga, tarbiya taktikasini o‘z vaqtida o‘zgartira olishiga hamda o‘smirning yangi ehtiyojlari va qibiliyatlariga mos ravishda munosabatlarni to‘g‘ri yo‘naltirishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

namoyon bo‘lib, bir tomondan qo‘pollik, o‘zidan qoniqmaslik va qo‘zg‘aluvchanlik ortsa, boshqa tomondan yangi, churroq qiziqishlar, o‘zini va boshqalarni tushunishga intilish kuchayadi. Shu bois kattalar — ota-onalar va pedagoglar — o‘smlarning psixologik xususiyatlarini chuqur anglab, ularga do‘stona, adolatli va moslashuvchan munosabatda bo‘lishlari lozim. Bu jarayon o‘smlarning shaxs sifatida shakllanishi, sog‘lom munosabatlarni rivojlantirishi hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Krakovskiy A.P. Shkol’naya dezadaptatsiya i yevo profilaktika. – Moskva: Prosveshcheniye, 1970.
2. Vigotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 1984.
3. Elkonin D.B. Psixologiya razvitiya uchashchixsy. – Moskva: Prosveshcheniye, 1974.
4. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
5. Karimova V.M. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
6. Nurmonov A., Raxmatova R. O‘smirlik davri psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
7. Musayev Sh. Umumiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2012.